а) со дня получения Банком документов, подтверждающих невозможность исполнения членом Наблюдательного совета своих полномочий;

б) с момента получения письменного уведомления члена Наблюдательного Совета о добровольном сложении с себя полномочий за один месяц до планируемого выхода с заявлением. При этом Наблюдательный совет Банка принимает решение о созыве внеочередного Общего собрания акционеров для выбора соответствующего члена и исключения

5-son tahrir
Редакция №5

Tasdiqlangan/Утвержден:
30.06.2026-й./г.

Amal qilish muddati /
Действителен до:
30.06.2027-й./г.

13-bet/стр.

qiladi;

c) Bank Ustavi talablari, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlari bajarilmaganda;

d) Kuzatuv kengashi a'zosi tomonidan Bankka zarar yetkazilganligi faktini tasdiqlovchi sud qarori mavjud bo'lganda;

e) Bank aksiyadori o'zgarganda;

f) Bankning ichki hujjatlarida va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha.

5.1.9. Agar Bank Kuzatuv kengashi a'zolarining soni Bank Ustavida nazarda tutilgan sonning yarmidan kamini tashkil etsa, Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari Kuzatuv kengashining yangi a'zolarini saylash uchun navbatdan tashqari Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida zudlik bilan qaror qabul qilishlari shart. Bank Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari faqat shunday navbatdan tashqari Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga egadirlar.

5.2. BANK KUZATUV KENGASHI A'ZOSINING HUQUQLARI

5.2.1. Bank Kuzatuv kengashi a'zosi quyidagi huquqlarga ega:

a) Kuzatuv kengashi kompetensiyasiga kiruvchi masalalarni hal etish uchun zarur bo'lgan Bankning normativ, hisob, hisobot, moliyaviy va boshqa hujjatlari hamda materiallari, shu jumladan to'liq auditorlik xulosalari, Bank Boshqaruvi yig'ilishlarining bayonnomalari bilan tanishish;

b) Bank Boshqaruvi Raisidan Bank faoliyatiga oid boshqa ma'lumotlarni asoslantirilgan tarzda so'rab olish;

c) o'z majburiyatlarini bajarganligi uchun Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori bilan belgilangan hollar va miqdorlarda haq hamda xarajatlar qoplamasini olish;

d) Kuzatuv kengashi va Bankning boshqa kollegial organlari yig'ilishlarining bayonnomalari bilan tanishish hamda ulardan nusxalar yoki ko'chirmalar olish;

e) kun tartibidagi masalalar va qabul

его из своего состава;

в) неисполнение требований Устава Банка, решений Общего собрания акционеров;

г) наличия решения суда, подтверждающее факт причинения членом Наблюдательного совета ущерба Банку;

д) при смене акционера Банка;

е) по другим основаниям, предусмотренным внутренними документами Банка и действующим законодательством Республики Узбекистан.

5.1.9. Если количество членов Наблюдательного совета Банка становится менее половины количества, предусмотренного Уставом Банка, оставшиеся члены Наблюдательного совета обязаны незамедлительно принять решение о созыве внеочередного Общего собрания акционеров для избрания новых членов Наблюдательного Совета. Оставшиеся члены Наблюдательного Совета Банка вправе принимать решение только о созыве такого внеочередного Общего собрания акционеров.

5.2. ПРАВА ЧЛЕНА НАБЛЮДАТЕЛЬНОГО СОВЕТА БАНКА

5.2.1. Член Наблюдательного совета Банка имеет право:

а) знакомиться с нормативными учетными, отчетными, финансовыми и прочими документами и материалами Банка, в том числе полными аудиторскими заключениями, протоколами заседаний Правления Банка, необходимыми для решения вопросов, относящихся к компетенции Наблюдательного совета;

б) обоснованно запрашивать у Председателя Правления Банка иную информацию, относящуюся к деятельности Банка.

в) получать за исполнение своих обязанностей вознаграждение и компенсацию расходов в случаях и размере, установленных решением Общего собрания акционеров;

г) знакомиться с протоколами заседаний Наблюдательного совета и других коллегияльных органов Банка, и получать их копии или выписки;

д) требовать внесения в протокол заседания

5-son tahrir
Редакция №5

Tasdiqlangan/Утвержден:
30.06.2026-y./г.

Amal qilish muddati /
Действителен до:
30.06.2027-y./г.

14-bet/стр.

qilinayotgan qarorlar bo'yicha o'zining alohida fikrini Kuzatuv kengashi yig'ilishi bayonnomasiga kiritishni talab qilish;

f) Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishini chaqirish tashabbusi bilan chiqish;

g) Bank Ustavi bilan nazarda tutilgan boshqa huquqlar.

5.2.2. Kuzatuv kengashi a'zolari shaxsiy boyish maqsadida Bank imkoniyatlaridan (mulkiy yoki nomulkiy huquqlaridan, xo'jalik faoliyati sohasidagi imkoniyatlaridan, Bank faoliyati va rejalari to'g'risidagi ma'lumotlardan) foydalanish huquqiga ega emaslar.

5.2.3. Kuzatuv kengashi a'zolari Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qaroriga ko'ra olinadigan haq va xarajatlar qoplamasidan tashqari, uchinchi shaxslardan o'z majburiyatlarini har qanday usulda va shaklda bajarishi yoki bajarmasligi uchun, shuningdek Kuzatuv kengashi a'zosi sifatidagi o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirganligi uchun haq olishga haqli emaslar.

5.3. Bank Kuzatuv kengashi a'zosining majburiyatlari

5.3.1. Kuzatuv kengashi a'zosi quyidagilarga majbur:

a) Kuzatuv kengashining maqsad va vazifalariga muvofiq, o'z huquqlari va kompetensiyasi doirasida ish yuritish;

b) Bank va uning aksiyadorlari manfaatlarini ko'zlab halol, vijdonan, oqilona va lozim darajada g'amxo'rlik bilan ish yuritish;

c) Bank to'g'risidagi o'ziga ma'lum bo'lgan maxfiy ma'lumotlarni oshkor qilmaslik. Mazkur majburiyat Kuzatuv kengashi a'zosi o'z lavozimidan ketganidan keyin uch yil davomida haqiqiy hisoblanadi;

d) Kechiktirib bo'lmaydigan masalalarni hal etish uchun Kuzatuv kengashi yig'ilishlarini chaqirish tashabbusi bilan chiqish;

e) O'z vakolatlarini boshqa shaxsga o'tkazmagan holda, Bank Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari yig'ilishlarida shaxsan ishtirok etish;

f) Kuzatuv kengashi yig'ilishlarining kun tartibidagi masalalarini muhokama qilishda va ular bo'yicha ovoz berishda faol ishtirok etish orqali qarorlar qabul qilinishida qatnashish;

g) Asoslantirilgan qarorlar qabul qilish, buning

Наблюдательного Совета своего особого мнения по вопросам повестки дня и принимаемым решениям;

е) Инициировать созыв заседания Наблюдательного совета Банка,

ж) иные права, предусмотренные Уставом Банка.

5.2.2. Члены Наблюдательного совета не имеют права использовать возможности Банка (имущественные или неимущественные права, возможности в сфере хозяйственной деятельности, информацию о деятельности и планах Банка) в целях личного обогащения.

5.2.3. Члены Наблюдательного совета не вправе получать от третьих лиц вознаграждение за исполнение или неисполнение ими своих обязанностей любым способом и в любой форме, а также за осуществление своих прав и обязанностей как члена Наблюдательного Совета, за исключением вознаграждения и компенсации расходов, получаемых по решению Общего собрания акционеров.

5.3. Обязанности члена Наблюдательного совета Банка

5.3.1. Член Наблюдательного совета обязан:

а) действовать в пределах своих прав и компетенции в соответствии с целями и задачами Наблюдательного совета;

б) действовать честно, добросовестно, разумно и с должной заботливостью в отношении интересов Банка и его акционеров;

в) не разглашать ставшую ему известной конфиденциальную информацию о Банке. Данное обязательство действительно в течение трех лет после ухода члена Наблюдательного совета со своего поста;

г) инициировать заседания Наблюдательного совета для решения неотложных вопросов;

д) лично присутствовать на заседаниях Наблюдательного совета Банка и его Комитетов без передачи своих полномочий;

е) участвовать в принятии решений Наблюдательного совета путем активного участия в обсуждении и голосовании по вопросам повестки дня его заседаний;

ж) принимать обоснованные решения,

5-son tahrir
Редакция №5

Tasdiqlangan/Утвержден:
30.08.2026-й/г.

Amal qilish muddati /
Действителен до:
28.08.2027-й/г.

15-bet/стр.

uchun barcha zarur ma'lumotlarni (materiallarni) o'rganish, surishtiruvlar o'tkazish va qabul qilinayotgan qarorlarga daxldor bo'lgan ma'lumotlarni Kuzatuv kengashining barcha a'zolari e'tiboriga yetkazish;

h) Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlardan tiyilish. Manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, Kuzatuv kengashi a'zosi mazkur ma'lumotni zudlik bilan Kuzatuv kengashi Raisiga oshkor qilishi kerak;

i) O'z mavqeyidan va Bank faoliyati to'g'risida olingan ma'lumotlardan shaxsiy manfaatlari yo'lida foydalanmaslik, shuningdek, boshqa shaxslar tomonidan ulardan shaxsiy manfaatlarda foydalanilishiga yo'l qo'ymaslik;

j) Qarorlar qabul qilishda Bank uchun tavakkalchiliklar va salbiy oqibatlarini baholash;

k) Bankka o'zining affillanganligi va undagi o'zgarishlar to'g'risida o'z vaqtida xabar berish hamda amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan, bajarilishidan o'zi manfaatdor deb topilishi mumkin bo'lgan bitimlar haqidagi ma'lumotlarni Kuzatuv kengashi e'tiboriga yetkazish;

l) Bank Kuzatuv kengashi tomonidan taklif etilayotgan loyiha va dasturlarning ekspertizasini o'tkazishda ishtirok etish;

m) Bankning korporativ madaniyati va qadriyatlarini shakllantirishda faol ishtirok etish;

n) Bank Kuzatuv kengashiga a'zoligi davrida o'ziga ma'lum bo'lgan tijorat, bank va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirlarni tashkil etuvchi ma'lumotlarga rioya qilish (ularni sir saqlash);

o) Bank mansabdor shaxslari va/yoki xodimlari tomonidan amaldagi qonunchilik, Bank Ustavi va boshqa ichki hujjatlari normalari buzilganligi to'g'risida o'ziga ma'lum bo'lgan faktlarni Kuzatuv kengashiga ma'lum qilish;

p) Bank qimmatli qog'ozlariga egalik qilishi to'g'risidagi yozma ma'lumotlarni Bankka taqdim etish, shuningdek, bunday qimmatli qog'ozlar bilan tuzilgan bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni bitimlar amalga oshirilishiga qarab oshkor qilib borish;

q) Aksiyadorlarning so'rovlariga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan muddatlarda o'z vaqtida javoblar taqdim etish;

для чего изучать всю необходимую информацию (материалы), проводить расследования и доводить до сведения всех членов Наблюдательного совета информацию, имеющую отношение к принимаемым решениям;

з) воздерживаться от действий, которые приведут или потенциально могут привести к возникновению конфликта интересов. В случае возникновения конфликта интересов член Наблюдательного совета должен незамедлительно раскрыть данную информацию Председателю Наблюдательного Совета;

и) не использовать свое положение и полученную информацию о деятельности Банка в личных интересах, а также не допускать их использование в личных интересах другими лицами;

к) при принятии решений оценивать риски и неблагоприятные последствия для Банка;

л) своевременно сообщать Банку о своей аффилированности и изменениях в ней, и доводить до сведения Наблюдательного совета сведения о предполагаемых сделках, в совершении которых он может быть признан заинтересованным;

м) участвовать в проведении экспертиз проектов и программ, предлагаемых Наблюдательным советом Банка;

н) активно участвовать в формировании корпоративной культуры и ценностей Банка;

о) соблюдать составляющих коммерческую, банковскую и иную охраняемую законом тайну, которые стали ему известны в период его членства в Наблюдательном совете Банка;

п) сообщать Наблюдательному совету ставшие ему известными факты нарушения должностными лицами и/или работниками Банка норм действующего законодательства, Устава и иных внутренних документов Банка;

р) представлять в Банк письменную информацию о владении ценными бумагами Банка, а также раскрывать информацию о совершенных сделках с такими ценными бумагами по мере совершения сделок;

с) своевременно предоставлять ответы на запросы акционеров в сроки, установленные законодательством Республики Узбекистан;

5-son tahrir
Редакция №5

Tasdiqlangan/Утвержден:
30.06.2026-й./г.

Amal qilish muddati /
Действителен до:
30.06.2027-й./г.

16-bet/стр.

r) Bank faoliyati bilan raqobatlashadigan har qanday faoliyatni har qanday shaklda amalga oshirmaslik, shuningdek Bank uchun ochilayotgan, biroq u tomonidan hali aniqlanmagan bitimlar va boshqa imkoniyatlardan o'z manfaatlarida foydalanmaslik, bunday imkoniyatdan foydalanish to'g'risida Bankning dastlabki taklifi hamda Kuzatuv kengashining ma'qullashi mavjud bo'lgan hollar bundan mustasno;

s) Agar Bank Kuzatuv kengashidagi faoliyat doirasidagi masalalarni hal etish uchun zarur bo'lsa, o'z malakasini oshirib borish;

t) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Bank Ustavi, Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarorlari va Bankning boshqa ichki normativ hujjatlarida nazarda tutilgan o'zga majburiyatlarni bajarish.

5.3.2. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq, Kuzatuv kengashi a'zolari Bankning Korporativ maslahatchisiga quyidagilar to'g'risida yozma ravishda xabar berishlari shart:

a) Shaxsini tasdiqlovchi hujjatlardagi o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlar;

b) O'zining pochta manzili (agar u yoki bu sabablarga ko'ra bunday manzil mavjud bo'lmasa yoki tegishli shaxsni Kuzatuv kengashi a'zoliciga nomzod qilib ko'rsatish to'g'risidagi hujjatlarda noto'g'ri ko'rsatilgan bo'lsa) va uning o'zgarishi haqidagi ma'lumotlar;

c) Mazkur Nizomga muvofiq tegishli Kuzatuv kengashi a'zosiga u yoki bu ma'lumotlar yuborilishi mumkin bo'lgan elektron pochta manzili va telefon raqami hamda ularning o'zgarishi haqidagi ma'lumotlar.

5.4. BANK KUZATUV KENGASHI A'ZOSINING JAVOBGARLIGI

5.4.1. Kuzatuv kengashi a'zosi Bank va aksiyadorlar oldida quyidagilar uchun javobgar bo'ladi:

a) Mazkur Nizom va Bank Ustavida nazarda tutilgan o'z majburiyatlarini bajarmaganligi va/yoki qisman bajarganligi sababli Bankka hamda uning aksiyadorlariga zarar yetkazilishi yoki Bank nufuziga (imidjiga) salbiy ta'sir ko'rsatilishi;

т) не осуществлять любую деятельность, в какой бы то ни было форме конкурирующую с деятельностью Банка, а также не использовать сделки и другие возможности, открывающиеся перед Банком, но еще не обнаруженные им, в собственных интересах, без предварительного предложения Банка и одобрения Наблюдательного совета воспользоваться такой возможностью;

у) в случае если это необходимо для решения вопросов в рамках работы в Наблюдательном совете Банка повышать свою квалификацию;

ф) выполнять иные обязательства, предусмотренные законодательством Республики Узбекистан, Уставом Банка, решениями Общего собрания акционеров и иными внутренними нормативными документами Банка.

5.3.2. В соответствии с требованиями законодательства Республики Узбекистан, члены Наблюдательного совета обязаны письменно сообщать Корпоративному консультанту Банка:

б) сведения об изменениях документов, удостоверяющих личность;

в) сведения о своем почтовом адресе (если по тем или иным причинам такой адрес отсутствует или указан неправильно в документах о выдвижении соответствующего лица кандидатом в Наблюдательный Совет) и его изменении;

г) сведения об адресе электронной почты и номера телефона, по которым соответствующему члену Наблюдательного совета может быть направлена та или иная информация в соответствии с настоящим Положением, и об их изменении.

5.4. ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЧЛЕНА НАБЛЮДАТЕЛЬНОГО СОВЕТА БАНКА

5.4.1. Член Наблюдательного совета несет ответственность перед Банком и акционерами за:

а) невыполнение и/или частичное выполнение своих обязанностей, предусмотренных настоящим Положением и Уставом Банка, которые могут принести ущерб Банку и его акционерам, или негативно повлиять

5-son tahrir
Редакция №5

Tasdiqlangan/Утвержден:
30.06.2026-й/г.

Amal qilish muddati /
Действителен до:
28.06.2027-й/г.

17-bet/стр.

b) Ular tomonidan qabul qilingan qarorlarning O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalariga muvofiqligi;

c) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilangan ma'lumotlarni taqdim etish tartibining buzilishi;

d) Ularning o'zlari yoki ularning affillangan shaxslari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida, Bankning zarar ko'rishiga olib kelgan yirik bitimlar va (yoki) tuzilishidan manfaatdorlik bo'lgan bitimlarni, shuningdek affillangan shaxslar bilan bitimlarni tuzishga doir takliflar kiritilganligi va (yoki) ularni tuzish to'g'risida qarorlar qabul qilinganligi;

e) Kuzatuv kengashi a'zosi sifatidagi o'z fidutsiar majburiyatlarini bajarmaganligi;

5.4.2. Kuzatuv kengashining Bankka zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga qarshi ovoz bergan yoki ovoz berishda ishtirok etmagan a'zolari javobgarlikdan ozod etiladilar.

5.4.3. Kuzatuv kengashi a'zolarining javobgarlik asoslari va miqdorini belgilashda ish muomalasining odatdagi shartlari va ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan boshqa holatlar hisobga olinishi kerak. Agar javobgarlik bir necha shaxs zimmasiga yuklansa, ularning Bank oldidagi javobgarligi solidar (sharikchilik) hisoblanadi.

5.4.4. Bank unga zarar yetkazilishida aybdor bo'lgan Kuzatuv kengashi a'zolarining vakolatlarini tugatish va ularni javobgarlikka tortish uchun zarur choralarni ko'radi.

5.5. BANK AKSIYADORLARINING HUQUQ VA MANFAATLARINI HIMOYA QILISH

5.5.1. Bankning barcha aksiyadorlari huquq va manfaatlarini himoya qilish Kuzatuv kengashining mutlaq javobgarligi va vakolatiga kiradi.

5.5.2. Bank aksiyadorlarining manfaat va huquqlarini himoya qilish Kuzatuv kengashi tomonidan quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

a) Bankning butun faoliyatini Bankning har bir aksiyadori manfaatlarini hisobga olgan holda tashkil etish;

на имидж Банка;

б) соответствие принятых ими решений нормам действующего законодательства Республики Узбекистан;

в) нарушения порядка предоставления информации, установленного законодательством Республики Узбекистан;

г) предложения к заключению и (или) принятию решений о заключении крупных сделок и (или) сделок, в совершении которых имеется заинтересованность, а также сделок с аффилированными лицами с целью получения ими либо их аффилированными лицами прибыли (дохода), повлекшего возникновение убытков Банка;

д) невыполнение своих фидуциарных обязательств члена Наблюдательного совета.

5.4.2. Члены Наблюдательного совета, голосовавшие против решения, которое повлекло причинение Банку убытков, или не принимавшие участия в голосовании, освобождаются от ответственности.

5.4.3. При определении оснований и размера ответственности членов Наблюдательного совета должны быть приняты во внимание обычные условия делового оборота и иные обстоятельства, имеющие значение для дела. В случае, если ответственность несут несколько лиц, их ответственность перед Банком является солидарной.

5.4.4. Банк принимает необходимые меры для прекращения полномочий членов Наблюдательного совета, виновных в причинении убытков Банку, и привлечению их к ответственности.

5.5. ЗАЩИТА ПРАВ И ИНТЕРЕСОВ АКЦИОНЕРОВ БАНКА

5.5.1. К исключительной ответственности и полномочию Наблюдательного совета относится защита прав и интересов всех акционеров Банка.

5.5.2. Защита интересов и прав акционеров Банка осуществляется Наблюдательным советом Банка посредством:

а) организации всей деятельности Банка с учетом интересов каждого акционера Банка;

б) обеспечением эффективной подготовки и

5-son tahrir
Редакция №5

Tasdiqlangan/Утвержден:
30.06.2026-й/г.

Amal qilish muddati /
Действителен до:
29.06.2027-й/г.

18-bet/стр.

b) Aksiyadorlarning umumiy (yillik va navbatdan tashqari) yig'ilishlarini, shu jumladan ovoz berish, ovozlarini sanab chiqish va qarorlar qabul qilishning shaffof tartib-taomillarini o'z ichiga olgan holda, samarali tayyorlash hamda o'tkazishni ta'minlash;

c) Ustav fondi (kapitali) ko'paytirilganda yoki kamaytirilganda, Bankning qo'shimcha qimmatli qog'ozlari chiqarilganda — aksiyadorlarning Bank ustav kapitalidagi ulushlari o'zgargan taqdirda ularning huquqlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik;

d) Bankning shaffof va samarali dividend siyosatini ishlab chiqish hamda joriy etish;

e) Bank va uning aksiyadorlari, shuningdek boshqa manfaatdor tomonlar o'rtasida samarali aloqani ta'minlash;

f) Aksiyadorlarning Kuzatuv kengashi a'zolari, Boshqaruv a'zolari va/yoki Bank xodimlarining potensial (ehtimoliy) qonunbuzarlik va/yoki g'ayriqonuniy harakatlari yuzasidan taklif hamda shikoyatlarini o'z vaqtida qabul qilish va ko'rib chiqish.

5.5.3. Kuzatuv kengashi Bank aksiyadorlariga ularning investitsiyalari qiymatiga va/yoki Bankka kiritilgan mazkur investitsiyalardan olinadigan daromadlarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan har qanday ma'lumotlarni, shu jumladan egalik qilish tuzilmasidagi muhim o'zgarishlar, aksiyalarning nazorat paketini sotib olish, qo'shib yuborish, ajratib chiqarish va boshqa o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida, asoslantirilgan hamda to'liq oshkor qilinishini ta'minlashi shart.

5.5.4. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarga tanishib chiqish, ko'rib chiqish va tegishli qarorlar qabul qilish uchun quyidagi muhim ahamiyatga ega ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda taqdim etishi kerak:

a) Bankning hisobot davridagi moliyaviy va operatsion faoliyati natijalari;

b) Bankni boshqarish tuzilmasi va siyosatiga oid asosiy masalalar;

c) Bank Kuzatuv kengashi a'zolariga yoki Bankning asosiy xodimlariga ta'sir ko'rsatuvchi o'zgarishlar yoki boshqa omillar;

d) Bank Kuzatuv kengashi a'zolariga to'lanadigan haq va imtiyozlar miqdori;

e) O'zbekiston Respublikasining normativ-

проведения общих (годовых и внеочередных) собраний акционеров, включая прозрачную процедуру голосования, подсчета голосов и принятия решений;

в) недопущения — при увеличении или уменьшении уставного фонда, выпуска дополнительных ценных бумаг Банка — нарушения прав акционеров при изменениях их доли в уставном капитале Банка;

г) разработки и внедрения прозрачной и эффективной дивидендной политики Банка;

д) обеспечением эффективной связи между Банком и его акционерами, а также другими заинтересованными сторонами;

е) своевременного принятия и рассмотрения предложений и жалоб акционеров на потенциально незаконные и/или неправомерные действия членов Наблюдательного совета, членов Правления и/или сотрудников Банка.

5.5.3. Наблюдательный совет обязан обеспечить своевременное, обоснованное и полное раскрытие акционерам Банка любой информации, которая может существенно повлиять на стоимость их инвестиций и/или доходы от этих инвестиций в Банк, включая существенные изменения в структуре собственности, информацию о приобретении контрольного пакета акций, слияния, выделения и другие изменения.

5.5.4. Наблюдательный совет должен своевременно и в полной мере предоставить на ознакомление, рассмотрение и принятие соответствующих решений акционеров следующую информацию важного значения:

а) финансовые и операционные результаты деятельности Банка за отчетный период;

б) ключевые вопросы, касающиеся структуры и политики управления Банком;

в) изменения или иные факторы, влияющие на членов Наблюдательного совета Банка или ключевых сотрудников Банка;

г) размер вознаграждения и льгот членам Наблюдательного совета Банка;

д) изменения в нормативно-правовых актах или законодательстве Республики Узбекистан,

5-son tahrir
Редакция №5

Tasdiqlangan/Утвержден:
30.06.2026-й/г.

Amal qilish muddati /
Действителен до:
30.06.2027-й/г.

19-bet/стр.

huquqiy hujjatlarida yoki qonunchiligida Bank faoliyatiga daxldor bo'lgan va/yoki aksiyalarga egalik qilish huquqi va/yoki ulushiga ta'sir ko'rsatadigan o'zgarishlar.

5.5.5. Bank Kuzatuv kengashi tomonidan taqdim etiladigan va Bank aksiyadorlariga tegishli bo'lgan va/yoki ular uchun muhim hisoblangan har qanday ma'lumot, shu jumladan Bankning operatsion faoliyati bo'yicha ma'lumotlar, Bank aksiyadorlariga Bankning Axborot xavfsizligi siyosatiga muvofiq taqdim etiladi.

5.6. BANK KUZATUV KENGASHI RAISI

5.6.1. Bank Kuzatuv kengashi Raisi hamda u bo'lgan taqdirda – Kuzatuv kengashi Raisi vazifasini vaqtincha bajaruvchi shaxs Bank Kuzatuv kengashi a'zolari tarkibidan Bank Kuzatuv kengashi a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan saylanadi.

5.6.2. Bank Kuzatuv kengashining yangi tarkibdagi birinchi yig'ilishini Bank Kuzatuv kengashi Raisi belgilangan tartibda saylangunga qadar chaqirish oldingi tarkibdagi Bank Kuzatuv kengashi Raisi tomonidan amalga oshiriladi. Kvorum mavjud bo'lgan taqdirda, bunday yig'ilish Bank Kuzatuv kengashining yangi tarkibi saylangan Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkazilgan sanada o'tkazilishi mumkin.

5.6.3. Bank Kuzatuv kengashi Raisi:

- a) Bank Kuzatuv kengashining samarali ishini tashkil etadi;
- b) Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishlarini chaqiradi va mazkur yig'ilishlarda raislik qiladi;
- c) Yig'ilishlar bayonnomasi yuritilishini tashkil etadi;
- d) Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida raislik qiladi;
- e) Bank nomidan Bank Boshqaruvi Raisi bilan mehnat shartnomasini tuzadi;
- f) Bank Kuzatuv kengashi nomidan Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishlarida tasdiqlangan hujjatlarni imzolaydi;
- g) Bank Ustavi va O'zbekiston Respublikasi

касающиеся деятельности Банка и/или влияющие на права и/или долю владения акциями Банка.

5.5.5. Любая информация, предоставляемая Наблюдательным советом Банка и относящаяся к и/или значимая для акционеров Банка, включая информация по операционной деятельности Банка, предоставляется акционерам Банка в соответствии с Политикой информационной безопасности Банка.

5.6. ПРЕДСЕДАТЕЛЬ НАБЛЮДАТЕЛЬНОГО СОВЕТА БАНКА

5.6.1. Председатель Наблюдательного Совета Банка и, на случай его отсутствия – временно исполняющий обязанности Председателя Наблюдательного совета, избирается из состава Наблюдательного совета банка большинством голосов членов Наблюдательного совета Банка.

5.6.2. Созыв первого заседания Наблюдательного совета Банка в новом составе до избрания Председателя Наблюдательного совета Банка в установленном порядке осуществляется Председателем Наблюдательного совета Банка прежнего состава. При наличии кворума такое заседание может быть проведено в дату проведения Общего собрания акционеров, на котором был избран новый состав Наблюдательного совета Банка.

5.6.3. Председатель Наблюдательного совета Банка:

- a) организует эффективную работу Наблюдательного совета Банка;
- б) созывает заседания Наблюдательного совета Банка и председательствует на этих заседаниях;
- в) организует ведение протокола собраний;
- г) председательствует на Общем собрании акционеров;
- д) заключает от имени Банка трудовой договор с Председателем Правления Банка;
- е) подписывает от имени Наблюдательного совета Банка документы, утвержденные на заседаниях Наблюдательного совета Банка.
- ж) осуществляет иные действия,

5-son tahrir
Редакция №5

Tasdiqlangan/Утвержден:
20.08.2026-y./r.

Amal qilish muddati /
Действителен до:
28.08.2027-y./r.

20-bet/стр.

qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshiradi.

6. BANKNING KORPORATIV MASLAHATCHISI

6.1.1. Bankning Korporativ maslahatchisi o'z majburiyatlarini doimiy asosda bajaradi va boshqaruv organlari tomonidan qonunchilik hamda Bankning ichki hujjatlarida belgilangan talablar bajarilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan malakaga ega bo'ladi. Bank Kuzatuv kengashining Korporativ maslahatchisi Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan ko'pchilik ovoz bilan tayinlanadi. Bank Kuzatuv kengashi Korporativ maslahatchisining faoliyati Bank Kuzatuv kengashining Korporativ maslahatchisi to'g'risidagi nizom bilan tartibga solinadi.

6.1.2. Bank organlari va mansabdor shaxslari tomonidan aksiyadorlarning huquq va manfaatlari amalga oshirilishini kafolatlaydigan protsessual talablarga rioya etilishini talab qilish, shuningdek Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishini, Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishlarini tayyorlash va o'tkazish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish, Bank Kuzatuv kengashi hujjatlarini saqlash, Bank tomonidan aksiyadorlarning murojaatlarini ko'rib chiqish va Bank aksiyadorlari huquqlarining buzilishi bilan bog'liq nizolarni hal etishga ko'maklashish Bank Korporativ maslahatchisining vazifasi hisoblanadi.

6.1.3. Bankning Korporativ maslahatchisi Bank Kuzatuv kengashi hamda Bank Boshqaruvi va Bank Boshqaruvi huzuridagi qo'mitalar o'rtasida aniq o'zaro hamkorlikni ta'minlaydi, shuningdek Bank Kuzatuv kengashi a'zolari va Bank mansabdor shaxslarini korporativ boshqaruv amaliyoti rivojlanishidagi yangi tendensiyalar to'g'risida xabardor qilib boradi.

6.1.4. Bankning Korporativ maslahatchisi quyidagilarga majbur:

a) Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishlarining kun tartibini shakllantirish;

b) yig'ilishlar bayonnomalarini yuritish va tuzish;

c) Bank Kuzatuv kengashining kiruvchi hujjatlarini hamda chiquvchi hujjatlarining

предусмотренные Уставом Банка и законодательством Республики Узбекистан.

6. КОРПОРАТИВНЫЙ КОНСУЛЬТАНТ БАНКА

6.1.1. Корпоративный консультант Банка исполняет свои обязанности на постоянной основе и обладает необходимой квалификацией для обеспечения выполнения органами управления требований, установленных законодательством и внутренними документами Банка. Корпоративный консультант Наблюдательного совета Банка назначается членами Наблюдательного совета Банка большинством голосов. Деятельность Корпоративного консультанта Наблюдательного совета Банка регулируется Положением о Корпоративном консультанте Наблюдательного совета Банка.

6.1.2. Задачей Корпоративного консультанта Банка является требование соблюдения органами и должностными лицами Банка, процедурных требований, гарантирующих реализацию прав и интересов акционеров, а также осуществление мероприятий по подготовке и проведению общего собрания акционеров Банка, заседаний Наблюдательного совета Банка, хранение документов Наблюдательного совета Банка, рассмотрение Банком обращений акционеров и содействие разрешению конфликтов, связанных с нарушением прав акционеров Банка.

6.1.3. Корпоративный консультант Банка обеспечивает четкое взаимодействие между Наблюдательным советом Банка и Правлением Банка и комитетами при Правлении Банка, а также информирует членов Наблюдательного совета Банка и должностных лиц Банка о новых тенденциях в развитии практики корпоративного управления.

6.1.4. Корпоративный консультант Банка обязан:

a) формировать повестку дня заседаний Наблюдательного совета Банка;

b) вести и составлять протоколы заседаний;

в) вести учет и хранить входящую документацию и копии исходящей

5-son tahrir
Редакция №5

Tasdiqlangan/Утвержден:
30.08.2026-й/г.

Amal qilish muddati /
Действителен до:
30.08.2027-й/г.

21-bet/стр.

nusxalarini hisobga olish va saqlash;

d) Bank Kuzatuv kengashi a'zolarini yig'ilish o'tkazilishi to'g'risida oldindan xabardor qilish;

e) Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishlari bayonnomalarining tegishli tarzda saqlanishini ta'minlash;

f) Bank Kuzatuv kengashi Raisining topshirig'iga binoan boshqa funksiyalarni amalga oshirish.

6.1.5. Bankning Korporativ maslahatchisi o'z funksiyalarini bajarganligi uchun har oylik haq (mehnatga haq to'lash, boshqa to'lovlar va kompensatsiyalar) oladi. Bank korporativ maslahatchisiga to'lanadigan haq miqdori Bank Kuzatuv kengashining qarori bilan belgilanadi.

7. BANK KUZATUV KENGASHI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

7.1. Kuzatuv kengashi yig'ilishi

7.1.1. Kuzatuv kengashi yig'ilishi Kengash Raisi tomonidan quyidagi hollarda chaqiriladi:

a) Kuzatuv kengashining tasdiqlangan ish rejasiga muvofiq;

b) Uning o'z tashabbusiga ko'ra;

c) Bank Kuzatuv kengashi huzuridagi qo'mita Raisi va/yoki Bank Kuzatuv kengashi a'zosining, Boshqaruv Raisi yoki Boshqaruv a'zosining, Ichki audit departamentining talabiga binoan;

d) O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tavsiyasiga ko'ra.

7.1.2. Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishini o'tkazish uchun Bankning Korporativ maslahatchisi Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishida ko'rib chiqiladigan materiallarni tayyorlashni tashkil etadi.

7.1.3. Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishi uchun materiallar quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin, lekin bular bilan cheklanmaydi:

a) Bank Kuzatuv kengashi huzuridagi qo'mitalarning hisobotlari va/yoki tahliliy ma'lumotlari;

b) Bank Boshqaruvi, Bank Boshqaruvi huzuridagi qo'mitalar, Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishining kun tartibiga kiritiladigan Bankning

документации Наблюдательного совета Банка;

г) заблаговременно сообщать членам Наблюдательного совета Банка о проведении заседания;

д) обеспечение надлежащего хранения протоколов заседаний Наблюдательного совета Банка;

е) осуществлять другие функции по поручению Председателя Наблюдательного совета Банка.

6.1.5. Корпоративный консультант Банка получает ежемесячное вознаграждение (оплату труда, другие выплаты и компенсации) за исполнение им своих функций. Размеры вознаграждений корпоративного консультанта Банка определяются решением Наблюдательного совета Банка.

7. ОРГАНИЗАЦИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАБЛЮДАТЕЛЬНОГО СОВЕТА БАНКА

7.1. Заседание Наблюдательного Совета

7.1.1. Заседание Наблюдательного совета созывается Председателем совета:

а) в соответствии с утвержденным планом работы Наблюдательного совета;

б) по его собственной инициативе;

в) по требованию Председателя комитета при Наблюдательном совете Банка и/или члена Наблюдательного совета Банка; Председателя Правления и члена Правления, Департамента внутреннего аудита.

г) по рекомендации Центрального банка Республики Узбекистан.

7.1.2. Для проведения заседания Наблюдательного совета Банка Корпоративный консультант Банка организует подготовку материалов для рассмотрения на заседании Наблюдательного совета Банка.

7.1.3. Материалы для заседания Наблюдательного совета Банка могут включать, но не ограничиваться нижеследующим:

а) отчеты и/или аналитическая информация комитетов при Наблюдательном совете Банка;

б) отчеты и/или аналитическая информация Правления Банка, комитетов при Правлении Банка, другие самостоятельные подразделения Банка, включаемые в повестку дня заседания

5-son tahrir
Редакция №5

Tasdiqlangan/Утвержден:
30.08.2026-й/г.

Amal qilish muddati /
Действителен до:
28.08.2027-й/г.

22-bet/стр.

boshqa mustaqil tarkibiy bo'linmalarining hisobotlari va/yoki tahliliy ma'lumotlari;

c) Bank Kuzatuv kengashining oldingi yig'ilishi bayonnomasi va tavsiyalari;

d) Bank Ichki audit deportametining, xalqaro reyting kompaniyalarining hisobotlari va/yoki tavsiyalari;

e) Bank Kuzatuv kengashi huzuridagi qo'mitalarning, Bank Boshqaruvi huzuridagi qo'mitalarning Bank faoliyati samaradorligini oshirish, shu jumladan innovatsiyalar, shuningdek Bank xodimlariga mehnat haqi to'lash va ularni rag'batlantirish tizimini takomillashtirish masalalari bo'yicha takliflari;

f) Umuman Bank, uning filiallari va boshqa bo'linmalari faoliyatining samaradorligi to'g'risidagi boshqa ma'lumotlar.

7.1.4. Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilnayotganda, uni chaqirayotgan shaxslar quyidagilarni belgilashlari kerak:

a) yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joyini;

b) yig'ilishning kun tartibini;

c) ovoz berishga qo'yiladigan masalalarning ta'rifini (shakllantirilishini);

d) yig'ilishga qadar Bank Kuzatuv kengashi a'zolariga taqdim etiladigan ma'lumotlar (materiallar) ro'yxatini.

7.1.5. Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishi chaqirilishi to'g'risida uning barcha a'zolari yig'ilish o'tkazilishidan kamida 3 kun oldin xabardor qilinishi kerak, kechiktirib bo'lmaydigan masalalar bo'yicha talablar bundan mustasno. Yig'ilish o'tkazilishi to'g'risidagi xabarnoma Bank Kuzatuv kengashi a'zolariga korporativ elektron pochta orqali yuboriladi.

7.1.6. Yig'ilish o'tkazilishi to'g'risidagi xabarnomada quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

a) yig'ilish chaqirilishi tashabbuskori haqidagi ko'rsatma (tashabbuskorning ismi-sharifi yoki talabni taqdim etgan organ yoxud yuridik shaxsning nomi);

b) kun tartibidagi masalalar va tegishli materiallar;

c) ko'rsatib o'tilgan masalalarni kun tartibiga kiritish sabablari (asoslari);

d) yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joy.

Наблюдательного совета Банка;

в) протокол и рекомендации предыдущего заседания Наблюдательного совета Банка;

г) отчеты и/или рекомендации Департамента внутреннего аудита Банка, международных рейтинговых компаний;

д) предложения комитетов при Наблюдательном совете Банка, комитетов при Правлении Банка по вопросам повышения эффективности деятельности Банка, включая инновации, а также совершенствования системы оплаты труда и стимулирования сотрудников Банка;

е) другая информация об эффективности деятельности Банка в целом, его филиалов и других подразделений.

7.1.4. При принятии решения о созыве заседания Наблюдательного совета Банка лица, его созывающие, должны определить:

а) дату, время и место проведения заседания;

б) повестку дня заседания;

в) формулировку вопросов, поставленных на голосование;

г) перечень информации (материалов), предоставляемых членам Наблюдательного совета Банка до заседания.

7.1.5. О созыве заседания Наблюдательного совета Банка все его члены должны быть уведомлены в срок не менее чем за 3 дня до проведения заседания, за исключением требований по вопросам неотложного характера. Уведомление о проведении заседания направляется членам Наблюдательного совета Банка посредством корпоративной электронной почты.

7.1.6. Уведомление о проведении заседания должно содержать:

а) указание на инициатора созыва заседания (имя инициатора либо наименование органа или юридического лица, предъявившего требование);

б) вопросы повестки дня и соответствующие материалы;

в) мотивы включения в повестку дня указанных вопросов;

г) дата, время и место проведения

5-son tahrir
Редакция №5

Tasdiqlangan/Утвержден:
30.06.2026-y./г.

Amal qilish muddati /
Действителен до:
28.06.2027-y./г.

23-bet/стр.

7.1.7. Bank Kuzatuv kengashi Raisi yig'ilishni chaqirish to'g'risidagi talab O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Bank Ustavi, mazkur Nizom yoki Bankning boshqa ichki hujjatlari talablariga muvofiq bo'lmagan hollarda yig'ilishni chaqirishni rad etishga haqli.

7.1.8. Bank Kuzatuv kengashi Raisi quyidagi masalalarni hal etish uchun Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishini chaqirishi shart:

a) Yillik Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish va uni chaqirish hamda o'tkazish uchun zarur bo'lgan qarorlarni qabul qilish;

b) Bankning yillik hisobotini dastlabki tarzda tasdiqlash;

c) Aksiyadorlarning yillik Umumiy yig'ilish kun tartibiga masalalar kiritish hamda Bankning boshqaruv va nazorat organlariga nomzodlar ko'rsatish to'g'risidagi takliflarini ko'rib chiqish va masalalarni yillik Umumiy yig'ilish kun tartibiga, nomzodlarni esa Bankning boshqaruv va nazorat organlariga saylovlar bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritish yoki bunday kiritishni rad etish to'g'risida qarorlar qabul qilish;

d) Bank Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish;

e) O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Bank Ustavi va mazkur Nizomga muvofiq Bank Kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilinishi majburiy bo'lgan boshqa masalalar.

7.1.9. Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishlari zaruratga qarab, lekin Kuzatuv kengashining Ish rejasiga muvofiq har chorakda kamida bir marta o'tkaziladi.

7.1.10. Kuzatuv kengashining Ish rejasi Bank faoliyatining asosiy masalalarini ko'rib chiqishni, Bankning moliyaviy-xo'jalik rejasi va byudjetini tasdiqlashni, reja va byudjetning ijrosini ko'rib chiqishni nazarda tutadi, shuningdek Kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan masalalarni o'z ichiga oladi. Reja amaldagi qonunchilik, Ustav talablari hamda Bank Kuzatuv kengashi a'zolarining takliflarini hisobga olgan

zasedaniya.

7.1.7. Председатель Наблюдательного совета Банка вправе отказать в созыве заседания в случаях, когда требование о созыве заседания не соответствует требованиям законодательства Республики Узбекистан, Уставу Банка, настоящему Положению или иным внутренним документам Банка.

7.1.8. Председатель Наблюдательного совета Банка обязан созвать заседание Наблюдательного совета Банка для решения следующих вопросов:

a) созыв годового Общего собрания акционеров и принятие решений, необходимых для его созыва и проведения;

b) предварительное утверждение годового отчета Банка;

v) рассмотрение предложений акционеров о внесении вопросов в повестку дня годового Общего собрания акционеров и выдвижении кандидатов в органы управления и контроля Банка и принятие решений о включении вопросов в повестку дня годового Общего собрания, а кандидатов — в список кандидатур для голосования по выборам в органы управления и контроля Банка, или об отказе в таком включении;

г) созыв Общего собрания акционеров для избрания нового состава Наблюдательного совета Банка;

д) иные вопросы, обязательные для принятия решений Наблюдательным советом Банка в соответствии с действующим законодательством Республики Узбекистан, Уставом Банка и настоящим Положением.

7.1.9. Заседания Наблюдательного совета Банка проводятся по мере необходимости, но не реже одного раза в квартал на основе Плана работы Наблюдательного совета.

7.1.10. План работы Наблюдательного совета предусматривает рассмотрение ключевых вопросов деятельности Банка, утверждение финансово-хозяйственного плана и бюджета Банка, рассмотрение выполнения плана и бюджета, а также включает вопросы, обязательные к рассмотрению Наблюдательного совета. План составляется с учетом требований действующего законодательства, Устава,

5-son tahrir
Редакция №5

Tasdiqlangan/Утвержден:
30.06.2026-й/г.

Amal qilish muddati /
Действителен до:
30.06.2027-й/г.

24-bet/стр.

holda tuziladi.

7.1.11. Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum Bank Kuzatuv kengashining saylangan a'zolari sonining kamida yetmish besh foizini tashkil etishi kerak. Agar Kuzatuv kengashi a'zolarining soni Bank Ustavida nazarda tutilgan sonning yetmish besh foizidan kamini tashkil etsa, Bank Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun navbatdan tashqari Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirishi shart. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari navbatdan tashqari Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilish, shuningdek Bank Boshqaruvi Raisining vakolatlari muddatidan oldin tugatilgan taqdirda uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlash huquqiga egadirlar.

7.1.12. Bank Kuzatuv kengashi tomonidan qarorlar qabul qilinayotganda, uning yig'ilishda ishtirok etayotgan a'zolari kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berish orqali o'z fikrlarini bildirishlari shart. Yig'ilish bayonnomasi yig'ilishda hozir bo'lgan Bank Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan imzolanadi.

7.1.13. Bank Kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega. Bank Kuzatuv kengashining qarori yig'ilishda hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, qonunchilikda, Bank Ustavida va mazkur Nizomda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno. Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda, Bank Kuzatuv kengashi Raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. Bank Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozi Kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga o'tkazishi mumkin emas.

7.1.14. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq, Bank Kuzatuv kengashining qarorlari quyidagi masalalar bo'yicha bir ovozdan qabul qilinadi:

- a) ustav fondini ko'paytirish, shuningdek Bank Ustaviga muvofiq Bank Ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish;
- b) yirik bitimlarni tuzish;

предложений членов Наблюдательного совета Банка.

7.1.11. Кворум для проведения заседания Наблюдательного совета Банка должен составлять не менее семидесяти пяти процентов от числа избранных членов Наблюдательного совета Банка. В случае, если количество членов Наблюдательного совета составляет менее семидесяти пяти процентов от количества, предусмотренного Уставом Банка, Банк обязан созвать внеочередное общее собрание акционеров для избрания нового состава Наблюдательного совета Банка. Остальные члены Наблюдательного совета Банка вправе принять решение о созыве внеочередного общего собрания Акционеров, а также назначить временно исполняющего обязанности Председателя Правления Банка в случае досрочного прекращения его полномочий.

7.1.12. При принятии решений Наблюдательным советом Банка его члены, участвующие в заседании, обязаны выразить свое мнение путем голосования по вопросам повестки дня. Протокол заседания подписывается всеми членами Наблюдательного совета Банка, присутствующими на заседании.

7.1.13. Каждый член Наблюдательного совета Банка имеет один голос. Решение Наблюдательного совета банка принимается большинством голосов присутствующих на заседании, за исключением случаев, предусмотренных законодательством, Уставом Банка и настоящим Положением. В случае равенства голосов, голос Председателя Наблюдательного совета Банка является решающим. Голосование одним членом Наблюдательного совета Банка другому члену Наблюдательного совета Банка не может быть передано.

7.1.14. В соответствии с требованиями законодательства Республики Узбекистан, решения Наблюдательного совета Банка принимаются единогласно по следующим вопросам:

- a) увеличение уставного фонда, а также внесение соответствующих изменений в Устав Банка в соответствии с Уставом Банка;
- б) заключение крупных сделок;

5-son tahrir
Редакция №5

Tasdiqlangan/Утвержден:
30.08.2026-й/г.

Amal qilish muddati /
Действителен до:
25.08.2027-й/г.

25-bet/стр.

c)affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish;

d)agar qarorlar sirtqi ovoz berish orqali qabul qilingan bo'lsa;

e)Bank tomonidan aksiyalarga konvertatsiya qilinadigan korporativ obligatsiyalarni chiqarish;

f)Bankning biznes-rejasi yoki byudjetini tasdiqlash yoxud ularga o'zgartirishlar kiritish;

g) O'zbekiston Respublikasidagi standart Bank faoliyati doirasidan tashqaridagi har qanday investitsiyaviy, ishbilarmonlik yoki tijorat faoliyatida ishtirok etish to'g'risida qaror qabul qilish.

7.1.15. Bank Kuzatuv kengashining qarorlari Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan sirtqi ovoz berish orqali qabul qilinishi mumkin.

7.1.16. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan tezkor qarorlar qabul qilish, Bankning normal moliyaviy-xo'jalik faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan kechiktirib bo'lmaydigan harakatlarni amalga oshirish, zarar va yo'qotishlarning oldini olish maqsadida, Kuzatuv kengashi yig'ilishlarini chaqirish hamda sirtqi ovoz berishni o'tkazish muddatlari, shuningdek tegishli xabarnoma va materiallarni yuborish muddatlari Kuzatuv kengashi Raisining qaroriga binoan o'zgartirilishi mumkin. Bunday hollarda Kuzatuv kengashi Raisi yig'ilishlarni chaqirish va sirtqi ovoz berishni o'tkazish muddatlarini, shuningdek tegishli xabarnoma va materiallarni yuborish muddatlarini belgilashda Kuzatuv kengashi a'zolarining zarur materiallar bilan tanishib chiqish hamda puxta o'ylangan qaror qabul qilishlari uchun oqilona imkoniyatlaridan kelib chiqishi kerak.

7.1.17. Kuzatuv kengashi a'zolari Kuzatuv kengashi yig'ilishlarida shaxsan ishtirok etishdan tashqari, Kuzatuv kengashi a'zosining shaxsini va uning ko'rib chiqilayotgan masala bo'yicha qabul qilgan qarorini ishonchli tarzda aniqlash imkonini beruvchi texnik aloqa vositalari (videokonferensiya, konferens-alloqa va h.k.) yordamida yig'ilishlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar.

7.1.18. Kuzatuv kengashi yig'ilishi texnik aloqa

v)совершать сделки с аффилированными лицами;

г)если Решения приняты заочным голосованием;

д)выпуск банком корпоративных облигаций, конвертируемых в акции;

е)утверждение или изменение бизнес-плана или бюджета Банка;

ж) принятие решения об участвовать в какой-либо инвестиционной, деловой или торговой деятельности вне сферы стандартной банковской деятельности в Республике Узбекистан.

7.1.15. Решения Наблюдательного Совета Банка могут быть приняты заочным голосованием всеми членами Наблюдательного совета Банка единогласно.

7.1.16. В целях принятия Наблюдательным советом незамедлительных решений, связанных с выполнением требований действующего законодательства Республики Узбекистан, безотлагательными действиями, необходимыми для обеспечения нормальной финансово-хозяйственной деятельности Банка, предотвращением ущерба и убытков, сроки созыва заседаний Наблюдательного совета и проведения заочного голосования, а также сроки направления соответствующих уведомлений и материалов, могут быть изменены по решению Председателя Наблюдательного совета. В таких случаях Председатель Наблюдательного совета при определении сроков созыва заседаний Наблюдательного совета и проведения заочного голосования, а также сроков направления соответствующих уведомлений и материалов, должен исходить из разумной возможности членов Наблюдательного совета ознакомиться с необходимыми материалами и принять обдуманное решение.

7.1.17. Члены Наблюдательного совета кроме личного участия на заседаниях Наблюдательного совета вправе участвовать на заседаниях с помощью средств технической связи (видеоконференция, конференц-связь и т.д.), позволяющих достоверно установить личность члена Наблюдательного совета и его решение по рассматриваемому вопросу.

7.1.18. В случае проведения заседания

5-son tahrir
Редакция №5

Tasdiqlangan/Утвержден:
30.06.2026-y./г.

Amal qilish muddati /
Действителен до:
30.06.2027-y./г.

26-bet/стр.

vositalari yordamida o'tkazilgan taqdirda, mazkur yig'ilish bevosita hozir bo'lgan holda (ochiq shaklda) o'tkaziladigan yig'ilishlar uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi. Bunday yig'ilishlar o'tkaziladigan joy Bank joylashgan manzil hisoblanadi.

7.1.19. Yig'ilish o'tkazilganda va unda Kuzatuv kengashi a'zosi texnik aloqa vositalari yordamida ishtirok etgan taqdirda, yig'ilish yakunlari bo'yicha tuzilgan Kuzatuv kengashi bayonnomasi ko'rib chiqish va imzolash uchun Bankning korporativ pochta orqali yig'ilishda texnik aloqa vositalari yordamida ishtirok etgan Kuzatuv kengashi a'zosiga yuboriladi. So'ngra Kuzatuv kengashi a'zosi tomonidan Kuzatuv kengashi bayonnomasining imzolangan skaner qilingan nusxasi (versiyasi) yuboriladi va u Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari tomonidan kelgusida imzolanishi uchun bayonnomaning asl nusxasiga ilova qilinadi. Kuzatuv kengashi a'zosi Bankka shaxsan kelganidan keyin, u tomonidan bayonnomaning asl nusxasi imzolanadi.

7.1.20. Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishida taklif etilgan shaxslar ishtirok etishlari mumkin. Taklif etilgan shaxslar quyidagi huquqlarga ega:

a) Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishining kun tartibidagi masalalar bo'yicha ular uchun oldindan belgilangan masalalarga muvofiq so'zga chiqish;

b) Bank Kuzatuv kengashi a'zolarining iltimosiga binoan, Bank Kuzatuv kengashi tomonidan muhokama qilinayotgan masalalar yuzasidan izohlar berish.

7.1.21. Taklif etilgan shaxslar Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishining kun tartibidagi masalalar bo'yicha ovoz berishda ishtirok etish huquqiga ega emaslar.

7.1.22. Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishida Bankning Korporativ maslahatchisi tomonidan yig'ilish bayonnomasi yuritiladi. Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishining bayonnomasi yig'ilish o'tkazilganidan keyin o'n kundan kechiktirmasdan tuziladi va unga quyidagilar kiritiladi:

- yig'ilish o'tkazilgan sana, vaqt va joy;
- yig'ilishda ishtirok etuvchi shaxslar;
- yig'ilishning kun tartibi;

Наблюдательного совета с помощью средств технической связи данное заседание проводится в порядке, предусмотренном для очных заседаний. Местом проведения подобных заседания будет являться место нахождения Банка.

7.1.19. В случае проведения заседания и участие на нем члена Наблюдательного совета с помощью средств технической связи, по итогам заседания, составленный Протокол Наблюдательного совета направляется посредством корпоративной почты Банка на рассмотрение и подписание члену Наблюдательного совета, принявшего участие на заседании с помощью средств технической связи. Далее членом Наблюдательного совета направляется подписанная сканированная версия протокола Наблюдательного совета и прилагается к оригиналу протокола для дальнейшего его подписания остальными членами Наблюдательного совета. После физического прибытия члена Наблюдательного совета в Банк, им подписывается оригинал Протокола.

7.1.20. В заседании Наблюдательного совета Банка могут участвовать приглашенные лица. Приглашенные лица имеют право:

a) выступать по вопросам повестки дня заседания Наблюдательного совета Банка в соответствии с заранее определенными для них вопросами;

b) комментировать по вопросам, обсуждаемым Наблюдательным советом Банка, по просьбе членов Наблюдательного совета Банка.

7.1.21. Приглашенные лица не вправе участвовать в голосовании по вопросам повестки дня заседания Наблюдательного совета Банка.

7.1.22. На заседании Наблюдательного совета Банка Корпоративным консультантом Банка ведется протокол заседания. Протокол заседания Наблюдательного совета Банка составляется не позднее десяти дней после его проведения и включает в себя:

- дату, время и место проведения собрания;
- лица, участвующие в заседании;

5-son tahrir
Редакция №5

Tasdiqlangan/Uтвержден:
30.08.2026-y./г.

Amal qilish muddati /
Действителен до:
28.08.2027-y./г.

27-bet/стр.

d) ovoz berishga qo'yilgan masalalar va ular bo'yicha ovoz berish yakunlari;
e) qabul qilingan qarorlar.

7.1.23. Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishlarining bayonnomalarini qonunchilikda belgilangan tartib va muddatlarda saqlashi shart. Bank aksiyadorlar, Bank Kuzatuv kengashi a'zolari, Bank Ichki audit departamenti direktoriga Bank Kuzatuv kengashi yig'ilishlari bayonnomalaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlashi shart.

7.2. Bank faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirish

7.2.1. Bank Kuzatuv kengashi muntazam ravishda, lekin har chorakda kamida bir marta, Bank Boshqaruvining taqdim etilgan hisobotlari hamda hisobot davridagi Bankning moliyaviy ahvoli va faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlari, shu jumladan taqdim etilgan masalalar bo'yicha Boshqaruvning tavsiyalari yuzasidan axborotini eshitadi. Bunda, eng kamida, Bank Boshqaruvi Raisining, Kuzatuv kengashiga hisobdor bo'lgan tarkibiy bo'linmalar rahbarlarining, biznes-bo'linmalar, shuningdek Bankning boshqa bo'linmalari rahbarlarining ma'ruzalari eshitaladi.

7.2.2. Bank Boshqaruvi tomonidan Bank Kuzatuv kengashi a'zolariga ko'rib chiqish, muhokama qilish va qarorlar qabul qilish uchun taqdim etiladigan hisobotlar quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, lekin bular bilan cheklanmaydi:

- a) moliyaviy faoliyat natijalari va tahlili;
- b) kredit portfelini boshqarish bo'yicha ma'lumotlar, shu jumladan portfel sifatining tahlili va muammoli kreditlar bilan ishlash;
- c) Bankda tavakkalchiliklarni boshqarish bo'yicha ma'lumotlar;
- d) investitsiya portfelini boshqarish;
- e) ichki audit faoliyati hamda komplaens va ichki nazorat xizmati bo'yicha ma'lumotlar;
- f) xavfsizlik xizmati ma'lumotlari;
- h) Markaziy bankning majburiy hisobotlari bo'yicha ma'lumotlar;
- i) o'zaro bog'liq va affillangan shaxslar bilan operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlar;

- в) повестку дня собрания;
- г) вопросы, поставленные на голосование, и итоги голосования по ним;
- д) принятые решения.

7.1.23. Банк обязан хранить протоколы заседаний Наблюдательного совета в порядке и сроки, установленные законодательством. Банк обязан обеспечить акционерам, членам Наблюдательного совета Банка, Директору Департамента внутреннего аудита Банка доступ к протоколам заседаний Наблюдательного совета Банка.

7.2. Осуществление контроля за деятельностью Банка

7.2.1. Наблюдательный совет Банка регулярно, но не реже одного раза в квартал, заслушивает Правления Банка по предоставленным отчетам и данным о финансовом положении и деятельности Банка в течении отчетного периода, включая рекомендации Правления по представленным вопросам. При этом, как минимум, заслушиваются доклады Председателя Правления Банка, глав структурных подразделений, подотчетных Наблюдательному совету, глав бизнес подразделений, а также других подразделений Банка.

7.2.2. Правлением Банка на рассмотрение, обсуждение и принятие решений членами Наблюдательного совета Банка предоставляются отчеты, включающую следующую информацию, но не ограничивающуюся:

- а) результаты и анализ финансовой деятельности;
- б) данные по управлению кредитным портфелем, включая анализ качества портфеля и работа по проблемным кредитам;
- в) информацию по управлению рисками в Банке;
- г) управление инвестиционным портфелем;
- д) сведения о деятельности внутреннего аудита, а также о службе комплаенса и внутреннего контроля;
- е) информацию службы безопасности;
- ж) информацию по обязательной отчетности Центрального банка;
- з) информацию по операциям со взаимосвязанными и аффилированными лицами;

5-son tahrir
Редакция №5

Tasdiqlangan/Утвержден:
30.08.2026-й/г.

Amal qilish muddati /
Действителен до:
30.08.2027-й/г.

28-bet/стр.

i) marketing faoliyati bo'yicha ma'lumotlar;
j) xodimlar bilan ishlash masalalari bo'yicha ma'lumotlar;

k) Kuzatuv kengashi a'zolarining so'roviga binoan boshqa ma'lumotlar va ma'ruzalar.

7.2.3. Kuzatuv kengashiga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladigan barcha hisobotlar Bank ko'rsatkichlarining mamlakatdagi boshqa raqobatchi moliyaviy institutlar bilan solishtirgandagi muhim (ijobiy va salbiy) og'ishlarini aniqlash maqsadida tahlil qilinishi kerak. Taqdim etiladigan hisobot va ma'lumotlar majburiy tartibda Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan prognozlardan hamda mamlakat bank sektori ko'rsatkichlaridan har qanday og'ishlar bo'yicha Bank Boshqaruvining tushuntirishlarini o'z ichiga olishi shart.

7.3. Bankning adekvat kapitallashuvini qo'llab-quvvatlash

7.3.1. Bank kapitalini saqlash hamda uning bank operatsiyalari ko'lamini va tavakkalchilik darajasiga muvofiqligini ta'minlash maqsadida Bank Kuzatuv kengashi:

a) Markaziy bank tomonidan belgilangan miqdorlarda ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi Bank tomonidan maxsus zaxiralar yaratilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

b) Bank Boshqaruvidan Bankning tavakkalchilik darajasini Markaziy bank tomonidan belgilangan miqdordan oshmasligini ta'minlashni talab qiladi;

c) bank aksiyalarini joylashtirish bo'yicha choralar ko'radi;

d) Bankning kapital va umumiy zaxiralari etarli darajada saqlanishini ta'minlaydi.

7.4. Kuzatuv kengashi qarorlarining ijrosi ustidan nazorat

7.4.1. Bank Kuzatuv kengashi qarorlarining ijrosi ustidan nazorat Kuzatuv kengashining tegishli qarorlari bilan tayinlangan ijrochilar tomonidan Kuzatuv kengashiga hisobotlar taqdim etilishi orqali ta'minlanadi.

7.4.2. Korporativ maslahatchi qabul qilingan qarorlar va ularga muvofiq bo'lgan topshiriqlarni ijrochilar e'tiboriga yetkazilishini ta'minlaydi hamda Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan

и) информацию по маркетинговой деятельности;

к) информацию по вопросам работы с персоналом;

л) иную информацию и данные, по запросу членов Наблюдательного совета.

7.2.3. Вся предоставляемая на рассмотрение Наблюдательного совета отчетность должна быть проанализирована с целью выявления существенных (положительных и отрицательных) отклонений показателей Банка в сравнении с другими конкурирующими финансовыми институтами страны. Представляемая отчетность и информация в обязательном порядке должны включать разъяснения Правления Банка по любым отклонениям от утвержденных Наблюдательным советом прогнозов, а также от показателей банковского сектора страны.

7.3. Поддержание адекватной капитализации Банка

7.3.1. В целях сохранения капитала Банка и обеспечения его соответствия масштабам и уровню риска банковских операций Наблюдательный совет Банка:

а) осуществляет контроль за созданием Банком специальных резервов против возможных потерь в размерах, установленных Центральным банком;

б) требует от Правления Банка обеспечения уровня рисков Банка, не превышающего установленного Центральным банком;

в) принимает меры по размещению акций банка;

г) обеспечивает достаточное сохранение капитальных и общих резервов Банка.

7.4. Контроль за исполнением решений Наблюдательного совета

7.4.1. Контроль за исполнением решений Наблюдательного совета Банка обеспечивается путем представления Наблюдательному совету отчетов от исполнителей, назначенных соответствующими решениями Наблюдательного совета.

7.4.2. Корпоративный Консультант обеспечивает доведение принятых решений и соответствующих им поручений до сведения исполнителей и организует сбор информации о

5-son tahrir
Редакция №5

Tasdiqlangan/Utverjden:
30.08.2026-y./g.

Amal qilish muddati /
Действителен до:
28.08.2027-y./g.

29-bet/стр.

qarorlarning bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni yig'ishni tashkil etadi.

7.4.3. Kuzatuv kengashi qarorlarining ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida Korporativ maslahatchi Kuzatuv kengashi qarorlari ijrosining borishi va natijalari tahlil qilinishini tashkil etadi. Korporativ maslahatchi qarorlarning ijro etilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni Kuzatuv kengashi Raisi va Kuzatuv kengashining boshqa a'zolari e'tiboriga yetkazadi.

8. BANK KUZATUV KENGASHI HUZURIDAGI QO'MITALAR

8.1.1. Bank Kuzatuv kengashi o'z vakolatiga kiruvchi masalalarni chuqurroq ishlab chiqish hamda asoslantirilgan va samarali qarorlar qabul qilish maqsadida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi quyidagi qo'mitalarni tashkil etadi:

- 1) Audit qo'mitasi,
- 2) Korporativ boshqaruv, xodimlarni tayinlash va rag'batlantirish qo'mitasi,
- 3) Tavakkalchiliklarni boshqarish va komplaens qo'mitasi,
- 4) Strategiya qo'mitasi.

8.1.2. Qo'mitalarning asosiy funksiyalari o'z faoliyat yo'nalishlari bo'yicha Kuzatuv kengashi kompetensiyasiga kiradigan masalalarni dastlabki tarzda har tomonlama o'rganish va Kuzatuv kengashi uchun tavsiyalar tayyorlashdan iborat.

8.1.3. Bank Kuzatuv kengashi qo'mitalari Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan qo'mitalar to'g'risidagi nizomlarga muvofiq shakllantiriladi hamda faoliyat ko'rsatadi, o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, Bank Ustaviga, Bankning boshqa ichki qoidalariga va Kuzatuv kengashi qarorlariga amal qiladi.

8.1.4. Qo'mitalar tarkibi Bank Kuzatuv kengashining kamida uch nafar a'zosidan iborat bo'lishi kerak. Ayni bir shaxslarning Kuzatuv kengashining ikkita va undan ortiq qo'mitalarida ishtirok etishiga yo'l qo'yilmaydi. Bank Kuzatuv kengashining bir a'zosi bir vaqtning o'zida ikkita yoki undan ortiq qo'mitaning raisi bo'lishi mumkin

ходе выполнения принятых Наблюдательным советом решений.

7.4.3. В целях осуществления контроля за исполнением решений Наблюдательного совета Корпоративный консультант организует проведение анализа хода и результатов исполнения решений Наблюдательного совета. Корпоративный консультант доводит до сведения Председателя Наблюдательного совета и других членов Наблюдательного совета информацию об исполнении решений.

8. КОМИТЕТЫ ПРИ НАБЛЮДАТЕЛЬНОМ СОВЕТЕ БАНКА

8.1.1. Наблюдательный совет Банка создает постоянно действующие комитеты для углубленной проработки вопросов, входящих в компетенцию Наблюдательного совета, и в целях принятия обоснованных и эффективных решений:

- 1) Комитет по Аудиту,
- 2) Комитет по Корпоративному управлению, Назначениям и Вознаграждению,
- 3) Комитет по Управлению Рисками и Комплаенс,
- 4) Комитет по Стратегии.

8.1.2. Основными функциями комитетов являются предварительное всестороннее изучение вопросов, относящихся к компетенции Наблюдательного совета, по направлениям их деятельности и подготовка рекомендаций для Наблюдательного совета.

8.1.3. Комитеты Наблюдательного совета Банка формируются и действуют в соответствии с положениями о комитетах, утверждаемыми Наблюдательным советом, и в своей деятельности руководствуются законодательством Республики Узбекистан, Уставом Банка, и иными внутренними правилами Банка и решениями Наблюдательного совета.

8.1.4. Состав комитетов должен состоять не менее чем из трех членов Наблюдательного совета Банка. Не допускается участие одних и тех же лиц в двух и более комитетах Наблюдательного совета. Один член Наблюдательного совета Банка не может одновременно являться председателем двух или

5-son tahrir
Редакция №5

Tasdiqlangan/Утвержден:
30.08.2026-y./г.

Amal qilish muddati /
Действителен до:
28.08.2027-y./г.

30-bet/стр.

emas.

8.1.5. Bank Kuzatuv kengashi tashkil etiladigan har bir qo'mita to'g'risidagi nizomni tasdiqlaydi, mazkur nizom qo'mita faoliyatining maqsad va vazifalarini, uning funksiyalarini, qo'mita a'zolarining huquq va majburiyatlarini, qo'mitani tashkil etish tartibini, qarorlar qabul qilishga qo'yiladigan talablarni va qo'mitaning Bank Kuzatuv kengashi oldidagi hisobdorligi qoidalarini belgilaydi.

8.1.6. Qo'mita Bank Kuzatuv kengashi nomidan ish yuritish huquqiga ega emas. Qo'mita qarorlari tavsiyaviy xarakterga ega.

8.1.7. Bank Boshqaruvi Kuzatuv kengashi qo'mitalari a'zolarining Bank ma'lumotlaridan (hujjatlaridan, materiallaridan) to'liq foydalanish imkoniyatini ta'minlashi shart.

8.1.8. Kuzatuv kengashi qo'mitalari majlislarining borishi, jarayoni va masalalarni ko'rib chiqish natijalari tegishli bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladi. Qo'mitalar majlislari bayonnomalarini yuritish qo'mitalar kotiblari tomonidan Qo'mitalar to'g'risidagi nizomlarga muvofiq amalga oshiriladi. Bayonnoma qo'mitaning majlisda hozir bo'lgan barcha a'zolari tomonidan imzolanadi.

9. KUZATUV KENGASHI VA UNING A'ZOLARI FAOLIYATINI BAHOLASH

9.1. Kuzatuv kengashi va uning a'zolari faoliyatini baholash Bank Aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi tomonidan mustaqil professional ekspertlarni jalb etish va/yoki Kuzatuv kengashi tomonidan o'z-o'zini baholashni o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

9.2. Kuzatuv kengashi har yili Kuzatuv kengashi va Kuzatuv kengashining har bir a'zosi faoliyatining samaradorligini alohida baholashi hamda hisobotlarni Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi muhokamasiga taqdim etishi shart.

9.3. Kuzatuv kengashining har bir a'zosi faoliyati samaradorligini baholash quyidagi mezonlarni o'z ichiga oladi:

- 1) Kuzatuv kengashi yig'ilishlariga muntazam qatnashish;
- 2) uning yig'ilishlarga tayyorgarlik darajasi;
- 3) ishtirok etish faolligi;

более комитетов.

8.1.5. Наблюдательный совет Банка утверждает положение о каждом создаваемом комитете, которое определяет цели и задачи деятельности комитета, его функции, права и обязанности членов комитета, порядок создания комитета, требования к принятию решений и правила отчетности комитета перед Наблюдательным советом Банка.

8.1.6. Комитет не вправе действовать от имени Наблюдательного совета Банка. Решения комитета носят рекомендательный характер.

8.1.7. Правление Банка обязано обеспечить полноценный доступ членов комитетов Наблюдательного совета к информации (документам, материалам) Банка.

8.1.8. Результаты рассмотрения вопросов, процесс и ход заседаний комитетов Наблюдательного совета оформляются соответствующими протоколами. Ведение протоколов заседаний комитетов осуществляют секретари комитетов в соответствии с Положениями о комитетах. Протокол подписывается всеми членами комитета, присутствующими на заседании.

9. ОЦЕНКА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАБЛЮДАТЕЛЬНОГО СОВЕТА И ЕГО ЧЛЕНОВ

9.1. Оценка работы Наблюдательного совета и его членов осуществляется Общим собранием акционеров Банка посредством привлечения независимых профессиональных экспертов и/или проведения Наблюдательным Советом самооценки.

9.2. Наблюдательный совет должен ежегодно проводить оценку эффективности деятельности Наблюдательного совета и каждого члена Наблюдательного совета в отдельности и представлять отчеты на рассмотрение Общему собранию акционеров.

9.3. Оценка эффективности деятельности каждого из членов Наблюдательного совета содержит следующие критерии:

- 1) регулярность посещения заседаний Наблюдательного совета;
- 2) степень готовности его к заседаниям;
- 3) активность участия;

5-son tahrir
Редакция №5Tasdiqlangan/Утвержден:
30.08.2026-y./r.Amal qilish muddati /
Действителен до:
29.08.2027-y./r.

31-bet/стр.

4) mulohazalarning mustaqilligi va xolisligi;

5) etika normalariga rioya qilish;

6) Kengashning samarali qarorlar qabul qilishiga ko'maklashgan, Kuzatuv kengashi yig'ilishlarida ko'rib chiqilgan masalalarning konstruktiv muhokamasiga qo'shgan shaxsiy hissasi;

7) sodiqlik tamoyiliga muvofiqligi.

10. SAQLASH

10.1. Mazkur Nizomning asl nusxasi Bankning Yuridik departamentida saqlanadi. Foydalanish uchun uning .PDF formatidagi elektron nusxasi Umumiy serverda saqlanadi. Mazkur Nizomning .DOCX formatidagi elektron nusxasi keyinchalik o'zgartirishlar kiritish uchun ishlab chiquvchida va Yuridik departamentda saqlanadi.

11. XULOSA

11.1. Mazkur Kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizom Bank Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

11.2. Mazkur Nizom tasdiqlangan paytdan e'tiboran Bank Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan (2022-yil 28-iyunda PK-09-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan; 2022-yil 28-iyundagi 54-sonli bayonnoma) "InFinBank" AJ Kuzatuv kengashi to'g'risida Nizom", unga barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar o'z kuchini yo'qotadi.

11.3. Agar mazkur Nizomning ayrim qoidalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga va/yoki Bank Ustaviga zid kelsa, mazkur qoidalar o'z kuchini yo'qotadi va mazkur qoidalar bilan tartibga solinadigan masalalar yuzasidan, mazkur Nizomga tegishli o'zgartirishlar kiritiladigan paytgacha O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari va Bank Ustavi normalariga amal qilinishi kerak.

11.4. Mazkur Nizomning rus va o'zbek tillaridagi matnlari o'rtasida tafovutlar yuzaga kelgan taqdirda, o'zbek tilidagi matni ustuvor hisoblanadi.

4) независимость и объективность суждений;

5) соблюдение этических норм;

6) личный вклад в конструктивное обсуждение вопросов, рассмотренных на заседаниях Наблюдательного совета, способствовавших принятию эффективных решений Наблюдательного совета;

7) соответствие принципу лояльности.

10. ХРАНЕНИЕ

10.1. Оригинальный экземпляр настоящего Положения хранится в Юридическом Департаменте Банка. Электронный экземпляр в формате .PDF хранится на Общем сервере для пользования. Электронный экземпляр настоящего Положения в формате .DOCX хранится у разработчика и в Юридическом Департаменте для последующего внесения изменений.

11. ЗАКЛЮЧЕНИЕ

11.1. Настоящее Положение о Наблюдательном Совете вступает в силу с момента утверждения Общим собранием акционеров Банка в установленном порядке.

11.2. С момента утверждения настоящего Положения, Положение о Наблюдательном совете АО «InFinBank», утвержденное Общим собранием акционеров (Рег. PK-09 от 28.06.2022г., Протокол №54 от 28.06.2022г.) утрачивает свою силу.

11.3. Если отдельные положения настоящего Положения вступают в противоречие с действующим законодательством Республики Узбекистан и/или Уставом Банка, эти положения утрачивают силу и в части регулируемых этими статьями вопросов следует руководствоваться нормами действующего законодательства Республики Узбекистан и/или Устава Банка до момента внесения соответствующих изменений в настоящее Положение.

11.4. В случае каких-либо расхождений между русским и узбекским текстами настоящего Положения, преимущественную силу имеет узбекский текст.

5-son tahrir
Редакция №5

Tasdiqlangan/Утвержден:
30.06.2026-й/г.

Amal qilish muddati /
Действителен до:
29.06.2027-й/г.

32-bet/стр.

KELISHILGAN/СОГЛАСОВАНО:

**Sh.B. Mirzaraximov/
Мирзарaxимов Ш.Б.**

F.I.Sh./Ф.И.О.

Imzo /подпись

« » 2026 у./г.

**F.S. Isxakova /
Исхакова Ф.С.**

F.I.Sh./Ф.И.О.

Imzo /подпись

« » 2026 у./г.

**O.O. Bakirov /
Бакиров О.О.**

F.I.Sh./Ф.И.О.

Imzo /подпись

« » 2026 у./г.

**M.A. Sabirdjanova/
Сабирджанова М.А.**

F.I.Sh./ Ф.И.О.

Imzo /подпись

« » 2026 у./г.

**A.U. Rejamatov/
Режаматов А.У.**

F.I.Sh./ Ф.И.О.

Imzo /подпись

« » 2026 у./г.

**ISHLAB
CHIQILGAN/РАЗРАБОТАНО:**

**Korporativ
maslahatchi/Корпоративный
консультант**

Lavozim/Должность

**L.U. Raxmatullayeva/
Рахматуллаева Л.У.**

F.I.Sh./Ф.И.О.

Imzo/Подпись

Sana/Дата

Hujjatning amal qilishmuddati /Срок действия документа:

С 30.06.2026-yildan/г. по 29.06.2027 yilgacha/г.

Muddati uzaytirilgan /Продлен до « » 202 -yil/г.

Nusxa/Kопия № _____

Tarqatish sanasi/Дата рассылки

15.07.2026-yil/г.



YURIDIK XULOSA IO3-357

Yuridik departamenti tomonidan «Invest Finance Bank» aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashi to'g'risida nizom" loyihasi huquqiy ekspertizadan o'tkazildi.

Mazkur loyiha:

- O'zbekiston Respublikasining 05.11.2019-yildagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-sonli Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining 06.05.2014-yildagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-370-sonli Qonuni;
- "Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to'g'risida"gi Nizom (Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro'yxatga olingan; ro'yxat raqami: 3254);
- "InFinBank" AJning ichki qoidalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Shuningdek, ushbu loyiha "Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi Nizom (Adliya vazirligi tomonidan 05.04.2000-yilda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami: 916) talablariga javob beradi.

**Yuridik departament
direktori**

Metodologiya bo'limi
boshlig'i

2026-yil 5-iyun



H.G. Murodov



H.B. Abdisattorov